

08-01-18-son
2026-yil 30-yanvar



“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Raqobatni rivojlantirish va
iste’molchilar huquqlarini himoya
qilish qo‘mitasining Xavflarni
boshqarish qo‘mitasi raisi
H.S. Turaxujayev
2026-yil 30-yanvar

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar
huquqlarini himoya qilish qo‘mitasidagi
“Xavflarni boshqarish” qo‘mitasining yig‘ilish
1-son BAYONI

2026-yil 30-yanvar

Toshkent shahri

- Raislik qiluvchi:** - **H. S. Turaxujayev** – O‘zbekiston Respublikasi
Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini
himoya qilish qo‘mitasi raisi
- Qatnashganlar:** - U.Davlatov - Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar
huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisi o‘rinbosari;
A.Xakimov - Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish
va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish bo‘limi
boshlig‘i;
Sh.Shadmankulov - Yuridik ta‘minlash boshqarmasi
boshlig‘i;
N.Sabirov - Strategik rejalashtirish, metodologiya va
transformatsiya bo‘limi boshlig‘i;
- Yig‘ilish kotibi** - U. Toshboyev - Ichki audit, korrupsiyaga qarshi
kurashish va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish
bo‘limi bosh mutaxassisi

KUN TARTIBI:

1. Qo‘mitada xavflarni boshqarish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar
to‘g‘risida.

2. Qo‘mitada tashkil etilgan “Situatsion markaz”ning 2025-yil
davomidagi faoliyati to‘g‘risida.

(H.Turaxujayev, U.Davlatov, A. Xakimov, Sh. Shadmankulov, N.Sabirov, H.Turaxujayev)

Yig‘ilishni Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya
qilish qo‘mitasi (*keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita deb yuritiladi*) H. Turaxujayev ochib,
kun tartibidagi masala bo‘yicha majlis qatnashchilarini tanishtirdi va ushbu holatlar
bo‘yicha to‘liq ma‘lumot berilishi uchun so‘zni Ichki audit, korrupsiyaga qarshi

kurashish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limi boshlig'i A.Xakimovga berdi.

A.Xakimov o'z so'zida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 279-son qaroriga muvofiq, Qo'mitada "Xavflarni boshqarish" qo'mitasi tashkil etilgani va qaror talablaridan kelib chiqib, Qo'mita faoliyatidagi moliyaviy va boshqa xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish ishlari amalga oshirilayotganligi haqida ma'lumot berildi.

Jumladan, Qo'mitaning 17 ta boshqarma va bo'limlari faoliyati doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jami 43 ta xavf aniqlangan bo'lib, ularni baholash va tahlil qilish natijalariga ko'ra, ularning darajasi 1 ta "yuqori", 23 ta "o'rta", 19 ta "past" darajada baholangan.

Tahlillar aksariyat xavflar Qo'mitaning asosiy faoliyati bilan bog'liqligini ko'rsatdi.

Xususan, "Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarning narx shakllanishi "zanjiri"ni (*ishlab chiqaruvchi yoki import – birja – ulgurji – chakana*) tahlil qilishda, mahsulotlar narxlarining keskin tebranishiga ta'sir etayotgan omillarni, ularning kelib chiqish sabablarini, shakllangan yakuniy ustamani tezkor tahlil qilish maqsadida bozorlardagi hamda savdo tarmoqlaridagi chakana narxlarni tezkor o'rganish imkoniyati mavjud emasligi, jumladan hududiy organlar tomonidan ishchi kuchi yetishmasligi bu borada ma'muriy hududni to'liq qamrab olishning jismonan imkoniyati yo'qligi sababli ma'lumotlarni haqiqiy emas balki formal tusda va kech shakllanish xavfi" darajasi bo'yicha "yuqori" (6,89 ball) ko'rsatkichni tashkil etgan.

Shuningdek, Insofsiz raqobat amaliyotlariga, til biriktirishlar va kartel kelishuvlarga qarshi kurashish boshqarmasida "Mutaxassislarni doimiy ravishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jalb qilinishi natijasida boshqarmaning asosiy vazifa va funksiyalarning o'z vaqtida bajarilmasligi xavfi" darajasi "o'rta" (5,98 ball) ko'rsatkichini tashkil etgan holda, ehtimoliy xavf sifatida qayd etildi.

Muhokama jarayonida mazkur xavflarni muttasil monitoring qilish, erta aniqlash va bartaraf etish bo'yicha tizimli yondashuvni joriy etish zarurligi ta'kidlandi.

Shu bilan birga, Qo'mita markaziy apparatining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish, Moliya-iqtisod bo'limlari va Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasi tomonidan belgilangan muddatlarda o'z faoliyatlariga oid xavflar reyestri taqdim etilmaganligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, xavflarni boshqarish qo'mitasi a'zolari hamda tegishli tuzilmalarning mas'ul xodimlari 2025–yil davomida Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi o'quv markazi tomonidan tashkil etilgan xavflarni boshqarish bo'yicha 36 soatlik malaka oshirish kurslarini to'liq yakunlab, sertifikatlariga ega bo'lganligi bayon etildi.

2. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi hamda Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi o'rtasida qo'shma qaror qabul qilingan (*XDFU shaklida*) bo'lib, qarorga ilova sifatida "O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi

hamda uning tizimidagi tashkilotlar tomonidan Hisob palatasining “Masofaviy audit” avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanish tartibi” tasdiqlangan.

Mazkur tartibga asosan Qo‘mita Ichki audit va korrupsiya qarshi kurashish va huquqni qo‘llash bo‘limi tomonidan Qo‘mita markaziy apparati, hududiy organlari hamda tizim tashkilotlarida “Masofaviy audit” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali olingan risklar bo‘yicha nazorat tadbirlarini amalga oshirib, natijalari bo‘yicha ushbu tizimga tegishli ma’lumotlar kiritib borilmoqda.

Bundan tashqari, Qo‘mita tizimida byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanishni ta’minlash, risk-tahlillarni amalga oshirish hamda kamchiliklarni barvaqt aniqlash imkonini beruvchi “Situatsion markaz” tashkil etilgan. Mazkur markaz Hisob palatasining “Masofaviy nazorat markazi” bilan axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, doimiy monitoring jarayonida ichki va masofaviy audit tadbirlarini o‘tkazishda ushbu ma’lumotlardan samarali foydalanib kelinmoqda.

2025-yil davomida Hisob palatasining “Masofaviy nazorat” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali “Budjet tashkilotlarida ishlovchilarning 4 va undan ortiq daromad manbaiga ega fuqarolar” yo‘nalishida 3 holatda 58,4 mln. so‘m, “Affillanganlik tahlili (Uzex AI)” yo‘nalishida 41 holatda 12 789,9 mln. so‘m, “Affillanganlik tahlili” yo‘nalishida 1 holatda 83 mln. so‘m, “Debitor qarzдорliklar” yo‘nalishida 6 holatda 15,3 mln. so‘m, “Byudjet tashkilotlari xodimlari ish haqini UzASBO va Soliq organlari ma’lumotlari bazasini o‘zaro solishtirish” yo‘nalishida 88 holatda 39,2 mln. so‘m jami 139 holatda 12 985,7 mln. so‘m moliyaviy xato va kamchiliklarning oldi olindi.

Yuqorida keltirilgan masalalar yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarni muhokama qilgan holda “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar tasdiqlansin:

- O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi faoliyatiga oid “Xavflar reyestri” 1-ilovaga muvofiq;

- Xavflarni kamaytirish (*oldini olish va bartaraf etish*) bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq.

2. Qo‘mita markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari zimmasiga har chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyning 10-sanasiga qadar xavflarni kamaytirish (*oldini olish va bartaraf etish*) yuzasidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi yuzasidan ma’lumotlarni ishchi organga taqdim etib borsin.

3. Ichki audit, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish bo‘limi (A.Xakimov):

- tarkibiy bo‘linmalar tomonidan aniqlangan xavflarning belgilangan tartibda baholab borilishini;

- tarkibiy bo‘linmalar tomonidan chora-tadbirlar rejalarining ishlab chiqilishi va bajarilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirib borilishini;

- xavflarni boshqarish jarayoni bilan bog‘liq boshqa ma’lumotlarni har chorak

yakuni bo'yicha "Xavflarni boshqarish" qo'mitasiga kiritib borilishini;

- "Situatsion markaz" faoliyatini yanada takomillashtirib borilishini, masofaviy audit tizimi orqali kelib tushayotgan risklarni tahlil qilinishini va ularni o'z vaqtida o'rganib borilishini;

- "Masofaviy audit" tizimi orqali aniqlangan hududiy tizim tashkilotlarining debitor qarzdorliklarini o'rganilishini;

- nazorat tadbirlarida aniqlanayotgan tizimli xato va kamchiliklarning oldini olish yuzasidan Rahbariyatga takliflar kiritib borilishini ta'minlasin.

4. Devonxona (F.Ikramova) mazkur bayonnomani Qo'mita markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy organlari va idoraviy mansub tuzilmalariga yuborilishini ta'minlasin.

5. Mazkur yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilish rais o'rinbosari U.Davlatov zimmasiga yuklansin.

Kotib

U.Toshboyev

U.Davlatov (*imzolangan*)

A.Xakimov (*imzolangan*)

Sh.Shadmankulov (*imzolangan*)

N.Sabirov (*imzolangan*)